O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/3



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

2026/3

Bosh muharrir
Rashid MATKARIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari ilmiy maslahatchi:
SH.SH. GAZIYEV

Tahrir hay’ati tarkibi:

E.T. Raxmanov
SH.S. Mirzanov
M.X. Mirjamalov
M.O‘. Arziqulov
K.F.Bayazitov,
F.K.Turdiyev,
N.J.Isakulova,
K.D.Yarashev,
D.X.Umarov,
M.S.Olimov,
A.N.Shopo‘latov,
S.B.Repkin,
A.Akbarov,
I.P.Sivoxin,
N.T.To‘xtaboyev,
I.J.Mambetnazarov,
I.B.Aliyev,
L.P.Yugay,
A.K.Eshtayev,
K.Sh.Ziyadullayev,
A.B.Jumaniyazov,
M.M.Qirg‘izboyev,
Z.Gapparov,
A.Xodjiyev,
A.U.Rashidov,
R.X.Nabiullin,
S.R.Davletmuratov,
O.E.Mamishev,
M.A.Ibragimov,
R.D.Xalmuxamedov,
B.A.Ishimov,
X.X.Atamuratov,
B.A.Satipov

Tahrir hay’ati kotibi
SH.X. Toshturdiyev

Jurnalning telegram kanali

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ

SPORT MASHG‘ULOTLARI: TEXNIKA, TAKTIKA, USULIYAT SPORTS TRAINING: TECHNIQUE, TACTICS, METHODOLOGY ТЕХНИКА, ТАКТИКА И МЕТОДИКА СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ

Sh.M. Nurmatova – Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida basketbolchilarning mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarini optimallashtirish modeli. 3

Е.Н. Черникова – Структура и содержание учебно тренировочного процесса многолетней подготовки велосипедистов шоссейников (в разрезе начальной подготовки). 7

A.Sh. Mo‘minov – Gandbolchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik. 10

Sh.S. Mannonova – O‘quv-mashg‘ulot guruhidagi uch hatlab sakrovchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini takomillashtirish uslubiyati. 14

K.R. Davidova – Yosh badiiy gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan samarali vosita va usullarni takomillashtirish. 18

Б.З. Каримов – Методика развития скоростно- силовых качеств баскетболистов и оценка её эффективности. 21

K.A. Darmenbaeva – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati. 25

И.А. Махсумов – Оценка психофизологических особенностей футболистов на начальном этапе подготовки при развитие общей ловкости. 29

D.B. Shaymardanov – Mini-futbolchilarning musobaqa faoliyatining fiziologik yuklamalarini tahlil etish natijalari. 32

O.A. A’zamxonov - Kurash bo‘yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. 35

I.X. Erdonov – Yosh futbolchilarning fikrlash qobiliyatini baholash. 38

E.I. Bayturayev – Samboda texnik tayyorgarlikni usullar kombinatsiyasi asosida takomillashtirish. 42

Д.А. Уткирова., А.Х. Каримов – Организационно-методические подходы в подготовке ведущей спортсменки Узбекистана в барьерном беге. 45

I.X. Turdibayev – Futbolchilarning musobaqa davri mikrosikllarida texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish. 50

Z.A. Abdulxayeva – Voleybol bo‘yicha XXXIV O‘zbekiston chempionati g‘olibi bo‘lgan ADPI ayollar jamoasi o‘yinchilarining texnik harakatlari samaradorlik koeffitsientlarini tahlil qilish. 55

E.S. Osmanov – Basketbolchilarning o‘yin faoliyatida reaksiya tezligini oshirishga qaratilgan mashg‘ulot usullarini takomillashtirish uslubiyati. 58

М.В. Моисеева – Значение танцевальных движений в развитии координации и повышении эффективности технически-тактических действий юных футболисток в соревновательной деятельности. 62

Н.А. Тастанов., Н.К. Султонова – Оценка физической работоспособности и аэробных возможностей спорт-сменов специализирующихся в греко-римской борьбе. 67



Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori, (PhD)
O.A. A’ZAMXONOV[1]
[1]Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali
Samarqand shahri, O‘zbekiston

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i3.a010

KURASH BO‘YICHA MURABBIYLAR KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

В данной статье рассматриваются вопросы развития и совершенствования профессионального мастерства тренеров по борьбе в процессе повышения квалификации. Освещаются вопросы организации семинар-тренингов и мастер-классов на высоком уровне, а также изучения передового международного опыта в области борьбы и путей его системного применения в практике подготовки специалистов.

Ключевые слова: *повышение квалификации, борьба, слушатели, спортивная тренировка, тренер по борьбе, креативность, мастерство, механизм, совершенствование, анкетный опрос.*

Abstract

Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida kurash bo‘yicha murabbiylarining kasbiy mahoratini rivojlantirish va takomillashtirishda seminar-trening, master-klasslarni yuqori saviyada tashkil etilish, kurash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganilish va ulardan tizimda foydalanish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *Malaka oshirish, kurash, tinglovchilar, sport mashg‘uloti, kurash murabbiyi, kreativ, mahorat, mexanizm, takomillashtirish, anketa so‘rovnoma.*

This article discusses the development and improvement of the professional skills of wrestling coaches in the process of advanced training. It highlights the organization of seminar-trainings and master classes at a high level, as well as the study of advanced international experience in wrestling and the ways of its systematic application in practice.

Keywords: *professional development, wrestling, participants, sports training, wrestling coach, creativity, skill, mechanism, improvement, questionnaire survey.*

Dolzarbligi. Bugungi kunda kurash sport turi bo‘yicha murabbiylarning pedagogik mahoratini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sport tizimida murabbiylarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirib borish sportchilarni yuqori natijalarga erishishga tayyorlash jarayonining muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, milliy sport turi hisoblangan kurashning xalqaro miqyosda keng rivojlanib borayotgani murabbiylardan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, innovatsion yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. Shu sababli kurash murabbiylarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning nazariy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalarini boyitish bugungi kunning muhim ijtimoiy zaruratlaridan biri hisoblanadi.

Davlatimiz Rahbarining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4881-sonli qarori asosida kurash sport turini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, ushbu sport turi bo‘yicha murabbiylarning kasbiy va pedagogik mahoratini tizimli ravishda oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur qarorda kurash sport turining ommaviyligini oshirish, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish, malakali murabbiylar tayyorlash hamda mavjud murabbiylarning bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirib borish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan [1.19].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5368-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu farmon asosida sport sohasidagi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda zamonaviy pedagogik va ilmiy-metodik yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-sonli qarorida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Mazkur qarorga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda innovatsion o‘qitish usullari asosida o‘qitish, ularning ilmiy-uslubiy bilimlarini boyitish, o‘quv jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish malaka oshirish tizimining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan [2.12].

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
– jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini oshirish, zamon talablariga mos ravishda ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajadagi kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish;

– zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash;

– mutaxassislarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalar-

ini shakllantirish, pedagogik yangiliklarga intilishni rivojlantirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
– jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etishda ilg‘or ta’lim texnologiyalari hamda xalqaro tajribadan foydalanish, ilmiy va o‘quv-metodik tadqiqotlar olib borish hamda ularni amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish zarur ekan, har bir sport turi bo‘yicha mavjud muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kurash sport turida murabbiylarning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, ularning fikr-mulohazalarini o‘rganish hamda amaliy faoliyatda uchrayotgan kamchiliklarni tahlil qilish ushbu sport turini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda ko‘plab mutaxassislar va olimlar tomonidan kurash sport turini rivojlantirish, uning ommaviyligini oshirish, sportchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish hamda murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy izlanishlar kurash sport turining nazariy va amaliy asoslarini yanada boyitishga xizmat qilmoqda.

Yurtimizda kurash sport turini ommalashtirish va rivojlantirish yo‘lida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish mavjud muammolarni chuqur o‘rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, kurash sport turini rivojlantirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish, murabbiylarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish hamda sportchilar tayyorgarligi sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Tadqiqotni tashkillashtirish. Shu maqsadda Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali “Sport ta’lim muassasalari trener-o‘qituvchilar” yo‘nalishi “Kurash” guruhi murabbiylari o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma tashkil qilindi. So‘rovnomada 40 nafar kurash murabbiylar ishtirok etishdi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi kurash bo‘yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish kurash sport turini yanada rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatib berish hisoblanadi.

Tadqiqot natijasi va uning muhokamasi. Tadqiqot ishida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali “Sport ta’lim muassasalari trener-o‘qituvchilar” yo‘nalishi “Kurash” murabbiylari ishtirok etdi.


Kurash bo‘yicha murabbiylar kasbiy mahoratini oshirish jarayonini uzluksiz tashkil qilishdagi muammolarni aniqlash maqsadida kurash bo‘yicha murabbiylar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada 40 nafar kurash murabbiylari ishtirok etgan.

“Mashg‘ulotlar davomida ko‘proq innovatsion uslublardan foydalanasizmi?” nomli berilgan savolga 26 nafar murabbiy: “Ha” deb javob berishgan bo‘lsa, 11 nafar pedagog-murabbiy: “Yo‘q” deb javob berishgan, 3 nafar murabbiy esa “Javob berishga qiynalaman” deb javob berishgan.



1-rasm. “Mashg‘ulotlar davomida ko‘proq innovatsion uslublardan foydalanasizmi?” nomli berilgan savolga berilgan javob natijalari.


“Mashg‘ulotlar samaradorligi oshirish uchun nima qilish kerak deb hisoblaysiz?” degan savolga 7 nafar murabbiy: “Texnik va taktik tayyorgarlikni rivojlantirish” deb javob berishgan bo‘lsa, 7 nafar murabbiylar bu savolga “Yangi uslublardan foydalanish tajribasini oshirish” deb javob berishgan, 16 nafar murabbiy esa bu savolga “Trenerlarning malakasini oshirish” deb javob berishgan. 10 nafar murabbiylar esa bu savolga “Trenerlarning xorij tajribasidan samarali foydalanish tajribasini oshirish” deb javob berishgan.



2-rasm. “Mashg‘ulotlar samaradorligi oshirish uchun nima qilish kerak deb hisoblaysiz?” nomli berilgan savolga berilgan javob natijalari.

“Kurash bo‘yicha trnerlarda kreativlikni rivojlantirish ishlarini qanday tashkil qilish kerak?” deb berilgan savolga 13 nafar murabbiy: “Malaka oshirish o‘quv dasturlariga kreativlik bo‘yicha innovatsion mashg‘ulotlarni kiritish kerak” deb javob berishgan bo‘lsa, 17 nafar murabbiy bu savolga “Sohada kreativlikni rivojlantiishga qaratilan master-klasslar, davra suhbatlarini tashkil qilish kerak” deb javob berishgan, 8 nafar murabbiylar esa bu savolga “Soha ta’lim bosqichlarining barchasida o‘quvchi-sportchilarda kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy fanlarni o‘qitish ishlarini tashkil qilish kerak” deb javob berishgan. 2 nafar murabbiy “Boshqa yozing” deb berilgan

savolga. Sohaga oid videoroliklar, zamonaviy jihozlar hamda xorijiy tajribalarni bevosita amaliyotga tatbiq etish deb javob berishgan.



3-rasm. “Kurash bo‘yicha trnerlarda kreativlikni rivojlantirish ishlarini qanday tashkil qilish kerak?” nomli berilgan savolga berilgan javob natijalari

Tadqiot natijasi kurash bo‘yicha mutaxassislar kasbiy mahoratini oshirish tizimini rivojlantirish ishlarini tashkil qilishda berilayotgan bilimlarning zamonaviylik darajasi, kasbiy mahoratiga mosligi, murabbiylarda kreativ fikrlash hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerakligini ko‘rsatgan. Chunki mazkur omillar zamonaviy ta’limning asosini tashkil qilib, murabbiylar kasbiy mahoratini oshirishda quyidagi jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, yangi texnologiyalarning yaratilishi yangi yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa yangi uslublarni o‘zlashtirish, yangi texnologiyalardan foydalanishni bilish hamda tadqiqotlarni tashkil qilish tajribasiga ega bo‘lish talabini yuzaga keltirdi.

Ikkinchidan, informatsion-axborot oqimining oshib borishi katta axborot maydonini yuzaga keltirdi. Mazkur axborotlarni tahlil qilish, ulardan o‘z faoliyati dovomida foydalanish tajribasiga ega bo‘lish kasbiy mahoratni oshirishni talab qilmoqda. Shuning uchun ham mutaxasssislarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kasbiy mahoratini oshirishga e’tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Uchinchidan, fan-texnikaning rivojlanib borishi yangilikni o‘zlashtirganda emas, balki yangilikni o‘zlashtirib, uni takomillashtirganda natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda kreativ fikrlash orqali yangi uslublarni ishlab chiqish imkoniyatini oshirdi. Shuning uchun ham murabbiylarning kreativ yondashuvi yosh sportchilarni tayyorlashning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirib, o‘z sohasiga ijodiy yondashish talabani kuchaytirmoqda.

To‘rtinchidan, turli sohalar va kasblarning paydo bo‘lishi rivojlanishi kichik bo‘lgan murakkab kasblarni shakllanishi va rivojlanishini yuzaga keltirib, mutaxassislarga o‘z sohasidagi yangiliklardan foydalanish malaka va tajribasiga ega bo‘lishi zarurligi ko‘rsatmoqda. Mazkur holat ma’lum bir sohaning barcha sirlarini bilishni emas, balki kichik bir sohani to‘liq o‘zlashtirib, uning imkoniyatlaridan to‘liq va mahorat bilan foydalanish ko‘nikmasiga, ya’ni kompetentlikka ega bo‘lish kerakligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham kurash bo‘yicha murabbiylar kasbiy mahoratini oshirish jarayonida yuqoridagi omillarga e’tibor qaratish, malaka oshirish jarayonini zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirish hamda shu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlardagi muammolarni aniqlash va bartarf etib borish kurash bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish jarayonida kurash sport turi murabbiylarining kasbiy mahoratini muntazam ravishda takomillashtirib borish muhim amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sport tizimida murabbiylarning bilim va ko‘nikmalarini yangilab borish, ilg‘or pedagogik hamda sport-metodik yondashuvlarni o‘zlashtirish sportchilarning yuqori natijalarga erishishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli kurash bo‘yicha murabbiylarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga qaratilgan malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Malaka oshirish jarayonida kurash bo‘yicha murabbiylarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bunda murabbiylarning zamonaviy sport tayyorgarligi metodikasi, mashg‘ulotlarni rejalashtirish, yuklamalarni boshqarish hamda sportchilar bilan ishlashning pedagogik va psixologik jihatlari bo‘yicha bilimlarini boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Malaka oshirish kurslarining o‘quv-uslubiy ta’minotini zamonaviy talablar asosida yo‘lga qo‘yish zarur. Ya’ni o‘quv dasturlari, metodik qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari, innovatsion o‘qitish texnologiyalari va interaktiv usullar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar murabbiylarning bilim va ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Malaka oshirish kurslarida o‘quv mashg‘ulotlarini yuqori malakali, ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar, tajribali murabbiylar hamda sport sohasidagi yetuk mutaxassislar olib borishi lozim. Ularning nazariy bilimlari va amaliy tajribasi murabbiylarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kurash sport turi murabbiylari uchun kasbiy mahoratni takomillashtirishga oid o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar, dars mashg‘ulotlari ishlanmalari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash muhim hisoblanadi. Bu esa murabbiylarning o‘z ustida mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kurash bo‘yicha murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida seminar-treninglar, amaliy mashg‘ulotlar, master-klasslar hamda tajriba almashish uchrashuvlarini yuqori saviyada tashkil etish va ularni tizimli ravishda o‘tkazib borish zarur. Bunday tadbirlar

murabbiylarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Kurash sport turi bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish, ularni tahlil qilish hamda milliy sport tizimiga mos holda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, yetakchi sport maktablari va murabbiylar faoliyatini o‘rganish orqali yangi metodik yondashuvlarni qo‘llash imkoniyati yaratiladi.

Yuqorida qayd etilgan masalalar tizimli ravishda amalga oshirilsa, kurash sport turi murabbiylarining kasbiy mahorati yanada takomillashadi. Bu esa o‘z navbatida sportchilarning tayyorgarlik darajasi va sport natijalarining oshishiga, shuningdek, milliy kurash sportining xalqaro miqyosdagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Kerimov, F. A. (2004). Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar [Scientific research in the field of sport]. Zar qalam.

2.Yusupov, K. (2005). Kurash: Xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi [Kurash: International rules, techniques and tactics]. G‘afur G‘ulom nashriyoti.

3.Atoyev, A. K. (2005). Yosh o‘smirlarga o‘zbek kurashini o‘rgatish uslubiyoti [Methodology of teaching Uzbek kurash to adolescents]. Toshkent.

4.A’zamxonov, O. A. (2024). Tanlangan sport turlari nazariyasi va metodikasi: Kurash [Theory and methodology of selected sports: Kurash]. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

5.A’zamxonov, O. A., Choriyev, S. T., va boshqalar. (2024). Kurash: Namunaviy o‘quv dasturi [Kurash: Model curriculum]. Umid Design.

6.A’zamxonov, O. A., Choriyev, S. T., va boshqalar. (2025). Yangi o‘rganuvchilar uchun kurash [Kurash for beginners]. Dimal nashriyoti.



O‘qituvchi
I.X. ERDONOV[1]
[1]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Denov tumani, O‘zbekiston
https://orcid.org/0009-0001-4360-4547

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i3.a011

YOSH FUTBOLCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATINI BAHOLASH

Annotatsiya

Данное исследование направлено на анализ скорости мышления, распределения внимания и интеграции моторики у юных футболистов. В экспериментальной и контрольной группах применялись специальные тестовые методики, включая составление слов по пропущенным буквам и тест «Цифровой квадрат». Результаты исследования показали, что футбольные тренировки оказывают значительное влияние на развитие скорости мышления и интеграцию моторики у юных спортсменов. Командные и индивидуальные занятия способствуют улучшению интеллектуального и физического потенциала футболистов, повышают показатели внимания и скорости мышления. Кроме того, результаты тестирования отражают генетические и нейродинамические особенности мышления, а также влияние тренировочного процесса.

Ключевые слова: *юные футболисты, скорость мышления, распределение внимания, интеграция моторики, нейродинамические особенности, футбольные тренировки, когнитивное развитие.*

Abstract

Ushbu tadqiqot yosh futbolchilarda tafakkur tezkorligi, diqqat taqsimlanishi va motorika integratsiyasini tahlil qilishga qaratilgan. Tajriba va nazorat guruhlarida maxsus test usullari, shu jumladan tushirib qoldirilgan harflar orqali so‘z tuzish va “Raqamli kvadrat” testlari qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, futbol mashg‘ulotlari yosh sportchilarda fikrlash tezkorligi va motorika integratsiyasini samarali rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoaviy va individual mashg‘ulotlar orqali futbolchilarning intellektual va jismoniy salohiyati yaxshilanadi, diqqat va fikrlash tezkorligi ko‘rsatkichlari yuqori darajada rivojlanadi. Shuningdek, test natijalari tafakkurning genetik va ususiyatlari, shuningdek mashg‘ulot jarayonining ta’sirini aks ettirdi.

Kalit so‘zlar: *yosh futbolchilar, tafakkur tezkorligi, diqqat taqsimlanishi, motorika integratsiyasi, neyrodinamik xususiyatlar, futbol mashg‘ulotlari, kognitiv rivojlanish.*

This study focuses on the analysis of thinking speed, attention distribution, and motor integration in young football players. Special testing methods were applied in the experimental and control groups, including word completion tests with missing letters and the “Digital Square” test. The results demonstrated that football training significantly contributes to the development of thinking speed and motor integration in young athletes. Both team and individual training sessions enhance the intellectual and physical potential of the players, improving attention and cognitive processing speed. Additionally, the test outcomes reflect the genetic and neurodynamic characteristics of thinking as well as the influence of the training process.

Key words: *young football players, thinking speed, attention distribution, motor integration, neurodynamic characteristics, football training, cognitive development.*

Dolzarbligi. O‘zbekistonda futbolni aholi o‘rtasida eng ommaviy sport turiga aylantirish, yuqori iqtidorli yosh futbolchilarni saralab olish va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, mamlakat futbolini rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish, shuningdek, xalqaro talab va standartlarga muvofiq futbol mutaxassislarini tayyorlash, futbol klublari faoliyatini rivojlantirish hamda terma jamoalar uchun o‘quv-mashq jarayonini samarali tashkil etish masalalari dolzarb hisoblanadi. Shu maqsadda, O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon, shuningdek, mamlakatimizda o‘smirlar, yoshlar va xotin-qizlar jamoalari o‘rtasida xalqaro musobaqalar va qit’a birinchiliklarini o‘tkazishni ham nazarda tutadi.

Yuqori natijali sportning shiddat bilan rivojlanishi, albatta, sport zaxirasini tayyorlash tizimini ham zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirishni shart qiladi. Bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri sport maktablari va futbol klublaridagi murabbiylar ishining samarasi bilan bog‘liq. Hozirgi kunda futbol mamlakatimizda eng ommaviy sport turi hisoblanadi va shu maqsadni qo‘llab-quvvatlaydi, biroq bir qator mutaxassislar o‘tkazgan tadqiqotlar ma’lum qilganidek, yosh futbolchilarni tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi bolalar sport muassasalari ishining samaradorligi yuqori darajada emas.